

O'zbek Bolalar She'riyatida Qo'llangan Shakldosh So'zlarning Lingvopoetik Tahlili

*Sobirova Dilafruz Abdulhay qizi*¹

Annotatsiya: Maqolada o'zbek bolalar she'riyatida qo'llangan shakldosh so'zlarning lingvopoetikasi haqida so'z yuritildi. Istiqlool yillarida o'zbek bolalar she'riyatida yaratilgan asarlar tahlil ostiga olinib, leksemalar o'rtasidagi omonimiya hodisasi ochib berildi.

Kalit so'zlar: o'zbek bolalar she'riyati, lingvopoetika, omonimlar, leksemalar, omoleksemalar, omofonlar, shakldoshlik munosabati, so'zlar semantikasi.

Mamlakatimizda kitobxonlik va mutolaa madaniyatining yangi sifat bosqichiga ko'tarilgani aholining hamma qatlamlarida bo'lgani kabi yosh kitobxonlar uchun badiiy asarlarni tushunishda yangi sahifalarni ochdi. Davr talabi bilan yangicha fikrlayotgan, dunyoqarashi tubdan o'zgargan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishda badiiy asarlarning lisoniy jihatlarini tushunib yetish muhim ta'sir vositalaridan biriga aylandi. Zero, «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» shiori ostida o'zining Uchinchi Renessansiga qadam qo'ygan O'zbekiston uchun yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi ustida jiddiy bosh qotirish, yoshlarning tafakkurini o'stirish, estetik didini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston bolalarini tarbiyalashda, ularni o'z Vatani, ona tuprog'i va o'zbek xalqiga sadoqatli yoshlar etib voyaga yetkazishda badiiy adabiyotning o'rni juda katta. O'zbek bolalar adabiyoti kattalar adabiyotining ajralmas tarkibiy qismidir. Alohida ta'kidlash joizki, bolalar adabiyoti adabiyotning bolaligi emas, barkamol adabiyotning qaymog'i, komil mahsulidir. Balog'atga yetmagan adabiyotda, millatda bolalar adabiyoti alohida shakllanib, rivojlanmaydi.

Qolaversa, «kattalar uchun yozilgan kitobda yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo'lmaydi, bu xatodan bolani ogohlantirilsa, xato uning zehniga chuqurroq o'rnamshadi. Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g'oyat usta san'atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo'lmog'i kerak». Shu talabga mos ravishda bolalar adabiyotini tashkil etuvchi va rivojlantiruvchi bir nechta omillar bor. Birinchidan, u bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda yoziladi. Bolalar dunyosi kattalarning dunyosidan tamomila farq qiladi. Ular uchun dunyo sirli, jumboqli ko'rinadi. Bolalar adabiyotining bosh vazifasi mana shu jumboqni sodda, tushunarli tilda ular uchun yechib berishdan iborat. Xususan, bolalar she'riyatida bu yukning zalvori ikki baravar qiyinlashadi. Hammaga tushunarli bo'lgan oddiy, xalqona til va uning asosiy ko'rinishlari sanalgan betakror tashbehlar, sifatlashlar, o'xshatishlar bola savollariga eng maqbul javoblardir. Dunyoni bilishga intilgan bolaning haqiqiy ko'rinishini shoir Mirpo'lat Mirzo shunday tasvirlaydi:

Hovli bo'ylab pildirar, Kulib qiliqlariga,

Ikki yuzi naq lola. Demang: "Nega unaqa?"

Jilg'adayin chuldirar, Eng katta daholar ham,

Tinmay bijildoq bola. Bo'lgan bir payt shunaqa!

(Mirpo'lat Mirzo. "Bijildoq bola", 3-bet)

"Dunyoning eng ajib, eng sirli va sehrli sayohatlaridan biri So'z olamiga sayohatdir. Negaki, So'z yaratilishidan mo'jiza... Olamni idrok qilgan inson So'zni idrok qiladi. So'zning ildiziga yetgan kishi

¹ ADPI. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, (PhD)



dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi... Adabiy ijod hamisha Soʻz olamiga sayohatdir. Ijodkor Soʻzni tirik jon deb biladi va Soʻz bilan soʻzlashadi.” [1, 5-b.]

Darhaqiqat, kichik yoshdagi bolalarning tafakkurini oʻstirishda, ularni bosqichma-bosqich hayotga tayyorlashda soʻzlar muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, aniq bir soʻzda muayyan maʼnoning yuzaga chiqishini anglash jarayoni bolada har doim ham bir tekis kechmaydi. Ayniqsa, soʻzlardagi shakldoshlik munosabatini tushunish har qanday bolani qiynaydi, bitta shakl orqali bir nechta maʼnoni anglash uchun bolada tajriba, malaka hosil qilinishi kerak. Buni yaxshi anglagan bolalar shoirlari oʻz sheʼrlarida leksemalar oʻrtasidagi shakldoshlik (omonimiya) hodisasidan unumli foydalanishga uringanlar.

Omonimlar (*yunoncha homos – bir xil+onyma – nom*) soʻzlaridan olingan boʻlib, talaffuzi va yozilishi bir xil birdan ortiq soʻzlardir. Ular omo-fonlar (*yunoncha homos – bir xil+phone – tovush*) – talaffuzi bir xil, lekin yozilishi farqli boʻlgan soʻzlar; omoformalar (*yunoncha homos – bir xil+forma – shakl*) – maʼlum shakllarda tovush tomondan bir xil boʻluvchi soʻzlarga; omograflar (*yunoncha homos – bir xil+grapho–yozaman*) – talaffuzi farqli, yozilishi bir xil boʻlgan birdan ortiq soʻzlarga boʻlinadi. [2, 75-b.] Baʼzi adabiyotlarda omonimlar til birliklarining ifoda planida teng kelishi deb izohlangan va ular omoleksemalar termini bilan atalgan. Omoleksemalarni tasniflashda ularga til birliklari sifatida xos boʻlgan shakl yasalishi asos qilib olingan. Barcha muqobil grammatik shakllarda teng keladigan omoleksemalar omonim omoleksemalar, oʻzaro baʼzi grammatik shakllardagina teng keladigan omoleksemalar omoforma omoleksemalar deb atalgan. Omofonlar omoleksemalarga yaqin turuvchi hodisa sifatida izohlangan. [2, 75-b.] Mantiqan olib qaraganimizda, har ikki qarashda asos bor. Taʼkid birinchi galda til birligi shakliga va ayni paytda u orqali ifodalangan mazmunga qaratilmoqda. Har ikki jihat bir-birini taqozo etmoqda. Badiiy asarlarda shakldoshlik munosabatining har ikki tomonini eʼtiborga olish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalar adabiyotida soʻzdagi bitta tovushni oʻz oʻrnidan siljitish, qoʻshish yoki tashlab yuborish uning bollar tomonidan oʻzlashtirilishiga jiddiy taʼsir koʻrsatishi tabiiy. Shunga koʻra, omonim soʻzlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlik badiiy asarlarda alohida uslubiy vosita sifatida talqin etiladi. [4, 52-b.] Bolalarning nutqini oʻstirishda, ularning soʻz boyligini oshirishda, soʻzni his qildirishda shakldosh soʻzlarning ahamiyati katta. Omonim soʻzlardan oʻrinli foydalanishni barcha ijodkorlarning sheʼrlarida uchratish mumkin. Sheʼriy asarlarda qoʻllangan shakldosh soʻzlar qalamga olingan voqyeani taʼsirchan qilib yuzaga chiqarish, reallashtirish, narsa va hodisalarni bolalar hayotiga yaqinlashtirish vazifalarini bajargan. Buni Yahyo Togʻaning “Behi”, “yertut”, “Mitti malak” sheʼrlarida uchratamiz. Shoir *behi* (meva) – *behi* (eng yaxshisi); *boʻyi* (joyi) – *boʻyi* (kishi qomatining balandligi, boʻy-basti) – *boʻyi* (mobaynida, davomida) – *boʻyi* (hidi, isi); *mayda* (kichik koʻrinishda, shaklda) – *mayda* (may oyida) leksemalari oʻrtasidagi shakldoshlik munosabatidan foydalanib, betakror tashbehtar, oʻziga xos ohangdoshlikni yuzaga keltirgan. Bolalar uchun bunday sheʼrlarni oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Ular soʻzlarning ishlatilish oʻrinlarini kuzatadilar, maʼno nozikliklaridan boxabar boʻladilar, uslubiy rang-barangliklarni ilgʻash malakasini oʻzlashtiradilar.

Goh yirik, gohi mayda, Har joʻyakda qulf urgay. Pishar aprelda, mayda, Choʻtir yuzlik qulupnay; Murabbo uchun lekin, Mevalarning eng behi. Olcha, gilosdan keyin, Olxoʻriga teng behi; Topgan joyi soy boʻyi, Oʻsar boʻyi, oy boʻyi. Somsa-yu chuchvaraga, Yoqar, hoynahoy, boʻyi?! [7-, 5-, 15-, 16-b.]

Shakldosh soʻzlardan foydalanish bolalar sheʼriyatiga zamon ruhini olib kirish, bolalar hayotida roʻy berayotgan voqyea va hodisalarni aniq tasvirlash uchun imkoniyatlar yaratgan. Masalan, Anvar Obidjon “Oromgohda” sheʼrida shakldoshlikning original koʻrinishidan foydalangan. Bitta band ichida “*Qarshi*” (shahar nomi) va “*qarshi*” (teskari tomon) leksemalarini ketma-ket keltirib, sheʼrning ritmini, soʻzlarning ohangdoshligini, leksik poetizmni yuzaga keltirgan. *Shukur – vodi tomondan, Joʻra – Ohangarondan. Akrom esa – Qarshidan, Men qarama-qarshidan.* [6, 55-b.]

Toʻplangan materiallar shuni tasdiqlaydiki, ijodkorlar tomonidan shakldosh soʻzlardan foydalanib leksik poetizmni yaratish ikki xil vaziyatda amalga oshiriladi.



1. Bir joyda shakldosh soʻzlarni qoʻllash. Dilshod Rajab “Ishonch” she’rida “**yer**” (tuproq, joy) hamda yer “**yer**” koʻmakchi fe’lini bitta misra ichida qoʻllab, oʻziga xos leksik poetizmni vujudga keltirgan.

Misol: *Nazar qilgan zamin, **yer** bu, Mudom tinchlik gʻamin **yer** u.* [9, 4-b.]

2. Shakldosh soʻzlarni bir necha joyda qoʻllash. Masalan, Yahyo Togʻa “Dorivor ziravorlar” va “yer ehsoni” she’rlarida “**tuz**” (oziq-ovqat mahsuloti) – “**tuz**” (keng tekis yer) soʻzlaridan unumli foydalangan: *Xush niyat, xush kalomlar, Dasturxonda non-u **tuz**; Xazonrezgi – olam tinch, Huvillaydi dala, **tuz**.* [7, 18-22-b.]

Bunday holatni “*Yoz keldi-yu, **yoz** keldi, Kunlar nurli, soz keldi; Lapanglab, dedi Oʻrdak: – Mening xatim zoʻr, oʻrtoq. Sen-chi, odat qil Xoʻroz, Maʼnoli, chiroyli **yoz**!* [8, 27-28-b.] satrlarida ham koʻramiz.

Anvar Obidjon shakldosh soʻzlarning qavatlanishidan foydalanib leksik poetizmning ajib koʻrinishini hosil qilgan. Misol: *Sakrogʻichmiz, chaqqonmiz, **Toʻp-toʻp-toʻp**. Ranjimaymiz tepsangiz **toʻp-toʻp-toʻp**.* [6, 10-b.] Bu yerda birinchi kelayotgan “*toʻp-toʻp-toʻp*” tovushga taqlid soʻz, ikkinchi oʻrinda kelayotgani “*koptok*” maʼnosi beradi.

Bolalar she’riyatida butun boshli toʻplamni shakldosh soʻzlarga ajratgan ijodkorlar ham bor. Shu maʼnoda Iqbol Mirzoning “Erkatoy – erka toy” [5, 48-b.] toʻplami eʼtiborga loyiq. Undan joy olgan 41 ta she’rda leksemalar oʻrtasidagi shakldoshlik munosabatidan foydalanilgan va ular vositasida bolalar tasavvurini boyitishga, atrof-olam, turfa hayvonlar, gullar, voqyea-hodisalar, ularning belgi-xususiyatlari toʻgʻrisidagi bilimlarni kengaytirishga urinib koʻrilgan. Toʻplamidan joy olgan shakldosh soʻzlarni toʻrt guruhga boʻlish oʻrinli boʻladi.

1. Asos holatdagi shakldosh soʻzlardan foydalanish. Bularga “Turna”, “Boʻrsiqchaning savoli”, “Ayiqqolvonning nevarasiga oʻgiti”, “Yoʻrgʻaning bola tarbiyasi”, “Qirqoyoqning erka toyga nasihati”, “Futbolchilar” singari she’rlarda qoʻllangan *burun – burun, oq- oq, oy – oy, oʻt – oʻt, yer – yer, yosh – yosh, ot – ot, qoʻy – qoʻy, tush – tush, toy -toy, ol – ol, toʻp – toʻp, oz – oz, uch – uch* kabi leksemalarni olishimiz mumkin.

Misollar: *burun* (oldin) – *burun* (yuz qismi): *Davruga eldan **burun**, Suqilib kirdi **burun**; oy* (osmon jismi) – *oy* (yil boʻlagi): *Handalakdek boʻpti **oy**, Oyi, hozir qaysi **oy**?*; *oʻt* (olov) – *oʻt* (ish-harakat): *Qayda koʻrsang olov-oʻt, Shu joyni aylanib oʻt; ot* (ish-harakat) – *ot* (hayvon): *Boʻrini tep, tishlab **ot**, Toychogʻim, sen otsan, **ot**; toy* (ish-harakat) – *toy* (erkalash-kichraytirish shakli): *Kamroq qoqil, kamroq **toy**, Toʻrt oyogʻing bor-a, **toy**!*; *toʻp* (guruh) – *toʻp* (koptok): Boʻlvolishib ikki **toʻp**, Goʻngqoʻngʻizlar oʻynar **toʻp**.

2. Omoforma shaklidagi leksemalardan foydalanish. Bularga “Oʻrgimchak topgan rohat”, “Askar jayralar qoʻshigʻi”, “Momoqaymoq boboqaymoqlarga dedi”, “Laqqabaliq choʻrtanga dedi” kabi she’rlarda qoʻllangan *koʻkka -koʻkka, tuyaman, tuyaman, toʻriga – toʻriga, otamiz – otamiz, sochingiz – sochingiz, jilmaydi – jilmaydi* kabi leksik birliklarni kiritish mumkin.

Misollar: *toʻriga* (yuqori qismiga) – *toʻriga* (toʻqigan ipiga): *Chiqib uyning **toʻriga**, Yonboshladi **toʻriga**; otamiz* (padarimiz) – *otamiz* (oʻq uzamiz): *Buyruq bersa **otamiz**, Nayzamizni **otamiz**!*; *sochingiz* (boshdagi sochlar) – *sochingiz* (tashlangiz): *Oqaribdi **sochingiz**, Uni yelga **sochingiz**; suvsar* (suv hayvoni) – *suvsar* (suvsamoq, chanqamoq): *Ajabo, manov **suvsar**, Suvda turib ham **suvsar**.*

3. Leksemalar va birikma shakllidagi til birliklari oʻrtasidagi shakldoshlikdan munosabatidan foydalanish. “Tulkixonning ukasiga dashnomi”, “Mushukchaga kuchukchadan savol”, “Xoʻranda timsohlar xulosasi”, “Koʻklamdagi adir manzarasi”, “Qashqirlar qaygʻusi”, “Maynaning chorlovi”, “Loyxoʻrakning singlisiga qistovi”, “Ehtiyotkor boʻrilar”, “Chalqancha yotgan toshbaqalar”, “Mashshoq qoʻngʻizlar” kabi she’rlarda *betartibsiz – bet artibsiz, miyov – mi yov, togʻ ora – togʻ ora, qoʻngʻiroq – qoʻngʻir, oq, beda nadir- bedanadir, oh, ular – ohular, tom osha – tomosha, es kirdi – eskirdi, kul ol – kulol, udumin – u dumin, bir ovga – birovga, oʻtaka – oʻt, aka, tor*



doirada – *tor*, *doirada* kabi leksik birliklar mahorat bilan qoʻllangan. Bu usul orqali leksik poetizmdan tashqari fonologik vositalardan intonatsiyadan, soʻz tartibidan, urgʻudan ham unumli foydalanilgan. Bularning hammasi birgalikda yaxlit bir emotsional-ekspressiv va funksional-stilistik taʼsir mexanizmini yaratganki, bu bolalar adabiyotida novatorlik sanaladi. Bunday usuldan foydalanish, ayniqsa, bolalar sheʼriyati uchun oldin xos boʻlmagan.

Misollar: *betartibsiz* (tartibsiz) – *betartibsiz* (betingizni artibsiz): *Qanaqa betartibsiz? Dumimga bet artibsiz*; *miyov* (tovushga taqlid soʻz) – *mi yov* (-mi yuklamasi va dushman soʻzlari): *Menga dedingiz miyov*, *Meni dedingizmi yov*; *shoʻrpa* (suyuq ovqat) – *shoʻr va* (tuzi koʻp va): *Shoʻrva ajoyib boʻpti*, *Shoʻr va ajoyib boʻpti*; *qoʻngʻiroq* (sas, un chiqaradigan moslama) – *qoʻngʻiroq* (rang turlari): *Qoʻngʻiroqgul chaldi qoʻngʻiroq*, *Un taraldi pushti, qoʻngʻir, oq*; *oh ular* (undov soʻz va koʻrsatish olmoshi) – *ohular* (kiyik turi): *Kamaymoqda, oh ular*, *Shoʻring qurgʻur ohular*; *tom osha* (tomdan oshib) – *tomosha* (koʻradigan voqyea): *Buzoq qochdi tom osha*, *Kelavering – tomosha*; *kul ol* (kulni ol) – *kulol* (loydan idish-tovoq yasaydigan kasb egasi): *Oʻchoqni supur, kul ol*, *Ish boshlar akang kulol*; *bir ovga* (ov qilgani) – *birovga* (boshqa odamga): *–Chiqmaymizmi bir ovga*, *Sotib qoʻyma birovga*; *jilmaydi* (kulimsiradi) – *jilmaydi* (qimirlamaydi): *Menga qarab jilmaydi*, *Lek joyidan jilmaydi*; *tor doirada* (tor joyda) – *tor, doirada* (musiqa asboblari): *Yigʻilib tor doirada*, *Kuy chaldik tor, doirada*.

Umuman olganda, shakldosh (omonim) soʻzlar badiiy matnga oʻzgacha ruh, koʻrishish baxsh etadi. Misralardagi jarangdorlikni, ohangdoshlikni taʼminlashda, oʻquvchiga taʼsir koʻrsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Omonim soʻzlarni bolalar sheʼriyatida qoʻllash ularni soʻz dunyosiga kirishga, soʻzlar ostida yotgan maʼno nozikliklarini topishga, soʻzlarni qaysi oʻrinlarda, qanday shakllarda ishlatishni bilishga chorlaydi. Bir soʻz bilan aytganda, bolalarning soʻz boyligi ortadi, soʻzlar semantikasiga oʻzi uchun “yoʻl ochadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Soʻz latofati. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2014. – B.5-7.
2. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati, 75-bet.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. – B. 126.
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. –52-bet.
5. Iqbol Mirzo. Erkatoy – erka toy. – Toshkent: Sano-standanrt, 2017. – 48-bet.
6. Anvar Obidjon. Kapalak qoʻshigʻi. – Toshkent: Navroʻz, 2016. –10-32-, 52-, 55- bet.
7. Yahyo Togʻa. Qarchigʻayning jiyani. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2019. – 18-, 22-, 64- bet.
8. Qambar Ota. “Quyosh bola, oy bola”. –Toshkent: Oʻqituvchi NMIU, 2014. – 27-, 28-, 56-b.
9. Dilshod Rajab. Poyezdning bolasi. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 9-, 48-bet.

